

Ta'lim tizimiga tegishli muhim tadbir

Har bir mamlakatning kelajagi yurt istiqboli bo'lgan yoshlarga va ularga berilayotgan ta'lism tarbiyaning sifati va samarasiga bog'liqligi bugungi kunda oynadek ravshan. 16 iyul kuni Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat texnika universiteti binosida O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rribbosari Abduhakimov Aziz Abduqahhorovich raisligida ta'limgagi islohotlar, ijob, muammo va yechimlar borasida hisobot mazmunidagi tadbir bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasi huzuridagi ta'lism sifatini nazorat qilish Davlat inspeksiysi boshlig'i Ulug'bek Ne'matovich Tashkenbaev, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining birinchi o'rribbosari Kongratboy Avazembetovich Sharipov, Toshkent davlat Agrar va Texnika universitetlari jamoasi faollari hamda institutimizning professor o'qituvchilari ishtirok etishdi.

Tadbir oldidan "O'zbekiston 24" telekanalining sayyor kamerasi tomonidan suratga olingan, uchta ta'lism muassasiga daxldor bo'lgan videolavha namoyish etildi. Videolavhada ta'lism muassasalarida yaratilgan sharoitlar, yutuq va ayrim nuqsonlar ro'yni rost o'z ifodasini topgandi. So'ngra ta'lism muassasalarining rektorlari bu yilgi ta'lism jarayonining yakuni va kelgusi yil uchun talabalarning ta'lism olishlari uchun yaratilayotgan imkoniyat va ta'mirlash ishlari borasida so'z yuritishdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24 may kuni O'zbekiston Milliy universitetiga tashrifi va shu asosda qabul qilgan qarorlari hamda unda ko'tarilgan masalalar, xususan oliy ta'lism muassasalari oldiga qo'yilgan vazifalarning ijrosi borasida fikr almashildi.



Institutimiz rektori tomonidan qilingan ma'ruzada ta'lism jarayonida innovatsion va investitsion faoliyatning samarasи, rivojlangan davlatlarning ta'lism muassasalari bilan olib borilayotgan xalqaro hamkorlik va imzolangan memorandumlar natijalari, katta summa miqdoridagi investitsiya kiritilishi borasida qilinayotgan harakatlar, institutimizda olib borilayotgan keng sur'atdagi qurilish va ta'mirlash ishlari aniq va mufassal ravishda ifoda etildi. Bosh vazir o'rribbosari institutimizga oid videolavha va rektor ma'rzasidan beixtiyor ruhlanib harakat va vazifalar samarasи shunday bo'lishi kerakligini alohida uqtirib minnatdorchilik bildirdi. So'ngra taklif va istaklarni aytgan professor o'qituvchilarga o'z mulohazalarini bildirib ularning takliflariga muvofiq, hal etishning imkoniyatlari borasida tegishli mutasaddi shaxslarga vazifalar yukladi. Takliflar oqimida kamina ham ta'limgning sifat va samarasini belgilovchi omil pedagogning kommunikativ kompetensiyasi bilan daxldor ekanini, bu bo'yicha maxsus 36 soatlik nazariy-amaliy mexanizm borligini e'tirof etdi. Misol tariqasida aytish joizki, Rossiya imperatori Pyotr 1 o'z vaqtida ta'limga oid shunday farmon qabul qilgan ekan. "Jismonan nosog'lom va nutqiy nuqsoni bor bo'lgan kishi garchi yaxshi mutaxassis bo'lsa ham sinfga kiritilmasin. Chunki, o'quvchilar taqlidchi va tanqidchi bo'llishadi, bu esa dars samarasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi".

Qaysi fandan dars bermasin, qay darajada unvon va yetuk bilimga ega bo'lmisin, axborot kompyuter texnologiyalarini o'zlashtirgan bo'lmisin, pedagog uchun eng avvalo, nutq mahorati, muloqot madaniyati va notiqlik san'atini egallash zarur. Busiz ta'limgning ijobiy natijasi, sifati va samarasи haqida gap bo'lishi ham mumkin emas. Kommunikativ kompetensiya til taktikasini talab etar ekan, uning ikki asosi bor - biri lingvistik, ikkinchisi nutqiy kompetensiya. Ma'naviyatning muhim belgisi savodxonlik bo'lib, uning ikki qanoti esa og'zaki va yozma nutq madaniyatini to'la-to'kis egallashdir. Shuning uchun ham til taktikasi taraqqiyot strategiyasining ta'sirchan va innovatsion mexanizmi, undan foydalana olish mahorati har bir pedagogning birlamchi vazifasi bo'lishi kerak. O'z ustida ishlash so'z ustida ishlashdan boshlanishini unutmaslik kerak. Bosh vazir o'rribbosari taklif va fikrimizni tasdiqlay turib, "ayrim talabalardan so'raganimizda, oraliq va joriy nazorat uchungina darsga kirishga majburmiz, o'qituvchilarning ko'pchiligi bizni dars berish usuli bilan qiziqtirmaydi, nutqiy malakasi yo'q" - deyishganining ko'p bor guvohi bo'lganman deya ta'kidladilar. O'z faniga, mavzuiga qiziqtira olmagan o'qituvchining talabani izidan ergashtira olishi, aslo, mumkin emas.



Kamina “Pedagogning kommunikativ kompetensiyasi” bo'yicha 36 soatlik nazariy-amaliy mexanizm borligini aytib, “o'rtacha o'qituvchi bayon qiladi, yaxshi o'qituvchi tushuntiradi, mashhur o'qituvchi namoyish qiladi, buyuk o'qituvchi ilhomlantiradi”, - degan Uilyam Uordning fikrini keltirganim zahoti Aziz Abduhakimov eng yaxshi notiq pedagoglarni saralash, o'qitish, rag'batlantirish uchun 1 milliard so'm ajratilishi kerakligini, shu bilan bog'liq holda, grant yutib olish zaruratini vazifa sifatida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri o'rribosari Ulug'bek Tashkenbaevga zimmasiga yuklab yubordilar.

Tadbir nihoyasida Prezidentimizning 5 tashabbusi borasida qilingan ishlarni yanada takomillashtirish, talabalar yotoqxonalarini sifatlari tarzda ta'mirlash, ularni dam olish va turli ma'naviy tadbirlar, to'garaklarga qiziqtirish uchun sharoitlar yaratish, talabalar o'zlari tahsil olayotgan ta'lim maskani bilan g'ururlanishi zarurligini ta'kidlab o'tdilar. Rektorlar talabalarning yotoqxonalariga borib ko'rishi, ularning talab va ehtiyojlarini eshitishi, ular uchun sharoitlar yaratib berishlari zarur. Media rejalar qilish, saytlarda tajribali ustozlar bilan suhbat-intervyular uyushtirish kerakligini ham alohida e'tirof etdilar. O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasi huzuridagi ta'lim sifatini nazorat qilish Davlat inspeksiyasi boshlig'i Ulug'bek Ne'matovich Tashkenbaev zimmasiga yuqtadilar. Ikki yarim soat davom etgan tadbir davomida professor-o'qituvchilar o'z kasb taqozosi nuqtai nazaridan yetarli yo'l-yo'riq va ko'rsatmalarga ega bo'lishdi.

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov